



Bukhara writer, poet and publicist!

Amonkeldi AKHMADOV¹

Bukhara State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2024
Received in revised form
10 August 2024
Accepted 25 August 2024
Available online
25 September 2024

Keywords:

literary environment of
Bukhara,
writer,
poet,
journalist,
press,
feuilleton,
world war,
Rustam Abdurakhmonov,
CPSU.

ABSTRACT

This article provides information about Rustam Abdurakhmonov, who has played a role in the development of the modern literary environment in Bukhara, yet whose creative work has not been thoroughly studied. For the first time, details about the life and work of this writer and journalist are being published. The article is based on archival materials.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3/S-pp389-393>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Buxorolik yozuvchi, shoir va publitsist!

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Buxoro adabiy muhiti,
yozuvchi,
shoir,
jurnalistika,
matbuot,
felyeton,
jahon urushi,
Rustam Abdurahmonov,
SIKP.

Ushbu maqolada Buxoroda zamonaviy adabiy muhit taraqqiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan bo'lsa-da, ijodiy faoliyati hamon o'rganilmay kelayotgan Rustam Abdurahmonov haqida ma'lumot beriladi. Yozuvchi va jurnalist sifatida faoliyat olib borgan adib hayoti va ijodi haqida ilk marotaba e'lon qilinmoqda. Maqolani yozishda arxiv materiallariga tayaniladi.

¹ Associate Professor, PhD, Bukhara State University

Бухарский писатель, поэт и публицист!

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Бухарская литературная среда, писатель, поэт, журналистика, печать, фельетон, мировая война, Рустам Абдурахманов, КПСС.

В данной статье представлена информация о Рустаме Абдурахманове, который, несмотря на значительный вклад в развитие современной литературной среды Бухары, остается малоизученным с точки зрения его творческой деятельности. Впервые публикуются сведения о жизни и творчестве этого писателя и журналиста. При подготовке статьи были использованы архивные материалы.

KIRISH

Buxoro zamonaviy adabiy muhitida nasriy asarlar yozish ananasi XX asrga kelib tamomila yangicha ko'rinishga kirdi. 30-yillarda adabiy muhitga bugungi kunda ijodi u qadar yaxshi o'rganilmagan Rustam Abdurahmonov singari yozuvchi va publitsistlar kirib kela boshladi. Ularning hayoti va ijodini o'rganish zamonaviy adabiy muhit tarixining qorong'i sahifalarini oydinlashtirishda ko'maklashadi. Adabiy jarayonlarning rivojlanishi sustlashmaganligini, doimiy harakatda bo'lganligini ushbu ijodkorlar hayotini o'rganish orqali aniqlashtirib, dalillashtirib olish mumkin.

TADQIQOT OBYEKTI VA QO'LLANILGAN METODLAR

Buxoro adabiy muhitini qaraydigan bo'lsak Abdurauf Fitratning Turkiyada nashr etilgan asari, Mirzo Siroj Hakimiyning "Tuhfa ahli Buxoro" va shunga o'xshash ayrim asarlar va she'riy to'plam chiqarildi. Ammo adabiyot uchun muhim bo'lgan nasriy janrlarga qaralsa bu borada zaiflik ko'zga tashlanadi. Zamonaviy uslublarning keng taraqqiy etishi bilan nasriy janrlar adabiy muhitning keyingi davrlarida rivoj topa bordi deyish mumkin.

Buxoro adabiy muhiti tarixida yorqin iz qoldirgan Sadriddin Ayniy ijodiga o'rganilar ekan, Buxoroda sodir qilingan bosqinga qadar asosan nazmda, so'ngra esa nasrda qalam tebratganini ko'rishimiz mumkin. Bu ijodkor ham ko'plab adiblar singari Buxoroni tark etgach, adabiy jarayonlar bir qadar pasaygandek ko'rinadi. Shu davrda muhitga yangi ijodkorlar kelib qo'shilishi adabiy jarayonlarni taraqqiy qildirib boradi.

Shunday ijodkorlardan biri Rustam Karimovich Abdurahmonov 1905-yil Buxoro viloyat G'ijduvon tumanida kambag'al dehqon oilasida tavallud topgan. Otasi qishloqma-qishloq yurib boylarning uyida chorikor bo'lib ishlagan. Yoshlik yillari G'ijduvon va Karmana atroflarida o'tgan. Olti yoshida Karmanada maktabni boshlab, G'ijduvondagi qishloq maktabida tamomlagan. Maktab davridanoq mumtoz adabiyot namoyandalari – Alisher Navoiy, Bedil, Fuzuliy, Hofiz Sheroziy, Muqumiy, Furqat she'riyatini o'qigan.

Maktab davridanoq she'rlar yoza boshlagan. Otasi vafotidan so'ng, kunduzi diniy maktabda o'qib, kechqurun nonvoyxonada shogird keyin esa, nonvoy bo'lib ishlagan. Bu bilan onasi, ukasi va singlisini moddiy ta'minlab turish imkoniga ega bo'lgan. Buxoro bosqinidan keyin ishchi yoshlar (Rabfak) maktabida o'qigan. Dastlab "Ozod Buxoro" gazetasining nashriyoti huzuridagi "Ishchi yoshlari" devoriy gazetasida she'rlari chiqib turgan. Dastlab "Ozod Buxoro" gazetasining nashriyoti huzuridagi "Ishchi yoshlari" devoriy gazetasida she'rlari chiqib turgan. Dastlabki katta ishi 1924-yil 10-oktyabrda

“Ozod Buxoro” gazetasida “Eski amaldorlar yo‘qolsin” sarlavhasi ostida bosilib chiqadi. (Maqolada: 1924-yil sentyabr oyida maktab sahnasida o‘sha zamon mulohazasi bilan aytganda bosmachilarga (aslida istiqbolchilar) qarshi yozilgan pyesa asosida teatr sahnasi namoyish qilinganda avvalgi davrda amir amaldorlaridan bo‘lgan bir kimsa rol ijro qilayotgan rabfak o‘quvchilarini kamsituvchi so‘zlar aytadi. Shu hodisaning guvohi bo‘lgan va voqeadan ta’sirlangan Rustam Abdurahmonov yuqoridagi asarini yozadi). Iqtidorini payqagan nashriyot xodimlari yosh havaskor muxbirni gazetada ishlashga chorlaydilar. Shunday qilib yosh ijodkor matbuot ishida faol ishtirok qilishga kirishadi.

Rabfakni 1924-yil oxirida muvaffaqiyatli tamomlab, Buxoro pedagogika bilim yurtiga o‘qishga kirgan. Undagi “Kommunizm chechagi” devoriy gazetasida “Chayon” taxallusi bilan hajviy she’rlar va tanqidiy maqolalarini yozadi. Ijodkor asarlari asosan eski ta’lim, millatchilikka qarshi kurashga da’vat ko‘rinishida bo‘lgan. O‘qish davomida oilasining moddiy ehtiyojlarini qoplash uchun savodsizlikni tugatishga qaratilgan kurslarda muallimlik qilgan. 1925-1927-yillarda viloyatning Sektare, Vang‘oze qishloq sovetlarida muallim, maktab mudiri lavozimlarida ishlagan. Yer-suv islohoti, kollektivlashtirish, xotin-qizlar ozodligi xullas qishloqlarda sovet hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan maqolalar yozgan.

Shu yillarda uning “Ozod Buxoro”, “Yosh leninchi” viloyat va “Qizil O‘zbekiston” singari respublika gazetalarida “Ko‘rgan”, “Chumchuq”, “Xabarchi” taxalluslarida she’rlar yozgani bizga ma’lum. “Ozod Buxoro” gazetasining “Qarmoq” satirik bo‘limida “Mulla tayoq” taxallusi bilan she’rlari yozgani saqlanib qolgan. “Ozod Buxoro”ning 1926-yil 26-noyabr sonida “Sud ishlari” bo‘limida ostida “Dodini kim eshitadi” sarlavhasi bilan “Ko‘rgan” taxallusida bosilgan material shov-shuvlarga sabab bo‘ladi. Ushbu maqoladan keyin aybdorlarga chora ko‘riladi.

Ahmadjon Yoqubov muharrirligidagi “Ozod Buxoro” gazetasi tahririyati Rustam Abdurahmonovni 1927-yil O‘rta Osiyo kommunistik universiteti (SAKU)ning jurnalistika fakultetiga o‘qishga yuboradi. 1929-yilda o‘qishni tugatib VKP(b) O‘rta Osiyo byurosi va O‘zbekiston kommunistik partiyasi markaziy komiteti uni “Ozod Buxoro”ga bo‘lim mudiri qilib yuboradi. “Men Rustam Abdurahmonovni birinchi marta Kattaqo‘rg‘on bilim yurtida o‘qib yurganimda uchratgan edim” – deb yozadi “Sovet O‘zbekistoni” gazetasi muharrir o‘rinbosari Xolbek Yodgorov. “O‘shanda u bilim yurti o‘quvchilari orasida so‘zga chiqqan va ularni mahalliy ahvollar haqida gazetaga yozib turishga chaqirgan edi”. Bu vaqtda “Ozod Buxoro” gazetasi Buxoro va Zarafshon okrugi nashri bo‘lib, Kattaqo‘rg‘on xabarlar ham shu gazetada bosilib chiqqan.

Rustam Abdurahmonov gazetachilik texnikasini korrektura va sahifalovchi bo‘lib ishlagan kezlarda o‘rganib tajriba orttirgan edi. Ikki oy shu vazifani bajargach gazetaning mas’ul kotibi etib tayinlanadi. Doimiy ijod qilish va izlanishdan to‘xtamagan adibning qalami tobora o‘tkirlashib borgan. XX asr 20 yillarida hech kim u singari ko‘p felyeton yozgan emas. Birgina 1928-yildan 1930-yil oktyabrgacha uning qirqdan oshiq felyetoni bosilgan. Yana ko‘plari bosilmay navbatini kutib qolib ketgan. Odatda felyetonlari mavzusi sovet mafkurasiga juda yaqinligi bois tez bosilgan. Jumladan, u asosan sinfiy dushmanlar, mulkiy tengsizlikni tugatish, jamoalashtirish, “bosmachilik”, ruhoniylarga qarshi mavzularda qalam tebratgan. Ijodkorlar va jurnalistlar uchun xatarli bo‘lgan yillarda ham yozishdan to‘xtamagan. Tez-tez jurnalist va yozuvchilarga zug‘umlar va tazyiqlar bo‘lar, ayrim hollarda ko‘cha atrofda ochiqchasiga tahdidlar qilingan. Shunday xatarli kunlarning birida muxbirlardan biri Siroj Sharipov o‘sha davr tili bilan aytganda “mushtumzo‘r

boylar” tomonidan kaltaklanib halok bo’ladi. Matbuot bu voqeaga siyosiy tus berib, keng jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadi[3,10]. Bundan tashqari Xo’jayakshanba qishlog’idan yosh ijodkor va jurnalist Idi Boltayev, Chorbakr qishlog’idan A.Bozorov, Buxoro shahridan Fathulla Xo’jayevlarning ham taqdiri shunday fojiali yakun topgani arxiv materiallarida saqlanib qolgan. Ayniqsa G’ijduvon tuman Firishkent qishloq fuqarolar yig’inining kotibi (Rustam Abdurahmonovning ukasi) Hotam Abdurahmonov “kolxozlashtirish” masalalari bo’yicha bo’lgan yig’indan qaytar chog’ida otib o’ldirilishi adib oilasiga qayg’u olib keladi. Ushbu holatlar biz tarixini yozayotgan ijodkorni ehtiyotkorlikka chorlab ijod bilan yashirin taxalluslar ostida shug’ullanishga majbur qilgan. Atrofda bo’layotgan xunrezliklar, tazyiqlar va ukasining o’ldirilishi ijodkorni to’liq sovet hukumati tomoniga o’tishiga va partiya manfaatlariga xizmat qilishiga sababchi bo’ladi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Rustam Abdurahmonov “Shalloqining amakivachchasi”, “Mandatchi xuliganlar” felyetonlarida matbuotchilar, yozuvchilar faoliyatiga to’sqinlik qilayotgan kishilar fosh qilinadi. “Mas’ul qonxo’rlar”[3,16] felyetonida ayrim rasmiy idora vakillarining kirdikorlarini fosh qilishga urinadi.

VKP(b) ning 1930-yil 11-avgustdagi qarori asosida 1930-yil 2-oktyabrda Buxoro shahri va Kogon tumani uchun “Buxoro proletari” gazetasi chiqa boshlagan. Gazetaga 1930-yil 4-oktyabrdan Rustam Abdurahmonov muharrir etib tayinlanadi. Adib ushbu vazifada 1930-1933-yillarda faoliyat yuritgan.

Tajribali jurnalist sifatida tanilgan Rustam Abdurahmonov 1933-yil “Lenin yo’li”, 1934-yilda Surxondaryo viloyatidagi “Ilg’or surxon uchun” gazetalarida bosh muharrirlik qilgan. Keyingi faoliyati viloyatlardan respublika darajasiga ko’tarilib, “Kolxoz yo’li” gazetasida muharrirlik vazifasini bajaradi. 1935-1936-yillarda O’zbekiston davlat nashriyotida bosh muharrir, 1937-1938-yillarda “Qizil O’zbekiston” gazetalarida muharrir o’rinbosari, keyinchalik muharrir bo’lib ishlagan. Shuningdek, O’zbekiston Kommunistik partiyasi markaziy komiteti huzuridagi partiya tarixi institutida katta ilmiy xodim vazifasida ham ishlagan.

Yozuvchining “Ozod Buxoro” va “Buxoro proletari” gazetalarida sahifalarida e’lon qilingan “Bir tillo halqa ertagi”, “Qoraxoniya chiqqan qora yaloq”, “Dumli odam” singari o’tkir felyetonlari o’z vaqtida shov-shuvlarga sabab bo’lgan matbuot sahifalaridan ayonlashadi. Hikoya, ocherk, lavhalari, milliy tarjimonlikda yaratgan ijodiy ishlari o’zbek adabiyotining yorqin sahifalarini yanada boyitadi [2,17].

XULOSA

Rustam Abdurahmonov bugun kimgadir tanish kimgadir, noma’lum. Biroq uzoq va samarali mehnat faoliyati davomida jurnalistika va adabiyotda o’z o’rniga ega bo’lgan adiblardan. Ko’plab she’r, hikoyalar yozdi. Buxoro zamonaviy adabiy muhitining taraqqiyoti tarixiga o’zining asarlari bilan munosib hissa qo’shgan ijodkorning hayoti va faoliyatini o’rganish bugungi kun adabiyotshunosligi oldidagi vazifalardan sanaladi. O’zbekiston tarixini batafsil, bor holicha o’rganishga kirishilgan bir davrda bunday adiblar faoliyati ham tadqiqotlarni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. XX asr 50-70 yillarida Buxoro adabiy muhiti tarixi. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. Volume 2, Impact Factor:5.947 ASI Factor = 1.7. April 2022. –B.399-403.
2. Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Бухоро бўлими котиблари (архив материаллари асосида, биринчи мақола). Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2023 йил №7). –Б 20-24.
3. Buxoro adabiy muhiti vakillarining tarjimalari tarixidan lavhalar. Uchinchi renessans poydevorini qo'yishda filologik tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyati mavzusidagi xalqaro konferensiya to'plami. – T., 2024. –B.216-219.
4. Бухорода фаолият юритган афғон адиблари. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2023 йил №9). –Б 13-15.
5. O'zbekiston SSSR yozuvchilar uyushmasining Mustaqillik arafasidagi faoliyati (Buxoro bo'limi misolida). Pedagogik akmeologiya. (1)2024. –B.7-10.
6. Ёзувчилар Уюшмаси Бухоро бўлимининг ташкил қилиниши ва дастлабки фаолияти. Таълим ва инновацион тадқиқотлар (2021 йил №5). –Б.29-36.
7. Axmtov A. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro bo'limi tarixi. Research on social and Humanitarian sciences Volume: 01. Issue:01/Jan-2023 Impact factor: 7.2 (2022) ISSN-L: 3595-3566 www.scirp.org.
8. Buxoro viloyat davlat arxivi, 1079-fond, 1-ro'yxat, 5-9-ishlar.
9. Ozod Buxoro 1929-yil, 16-sentabr.; 1930-yil, 10-mart.
10. Qizil O'zbekiston, 1944-yil 5-may.